



2021- yil yanvar-oktabr oylari uchun Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida jami 3867,9 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,9 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da



Yirik qurilish tashkilotlari




Kichik korxona va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.




Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu - o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2021- yilning yanvar-oktabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 419,9 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 117,8 ni tashkil etdi va jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 0,8 % punktga ko'payib, 10,9 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qo'ng'iroq tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 51,1 %, yoki 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 163,1 %), Taxiatsosh (ulushi 39,9 %, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 241,4 %), Qorao'zak tumani (ulushi 36,8 % yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,7 martaga ko'p) ga to'g'ri keldi.

51,1

Qo'ng'iroq

39,9

Taxiatsosh

36,8

Qorao'zak



2021- yil yanvar-oktabr

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI





2021- yilning yanvar-oktabr oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga, jami qurilish ishlari hajmining **72,0 %** i to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-oktabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **1,7 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **107,5 %** ni tashkil etgan holda **2786,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

**Kichik korxona
va mikrofirmalar, ulushi, % da**



Ma'lumot uchun: Joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori hajm ko'rsatkichi Nukus shahri 1184,9 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 92,0 %, To'rtko'l (251,1 mlrd. so'm, ulushi 74,3 %), Mo'ynoq tumani (205,6 mlrd. so'm, ulushi 90,0 %) va Qo'ng'iroq (159,7 mlrd. so'm, ulushi 40,2 %) tumanlariga to'g'ri keldi.


2021- yil yanvar-oktabr

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI**



Qurilish ishlarining umumiylajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **17,1 %** ni tashkil etdi yoki **661,7 mld. so'm** miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **116,0 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **253,0** mld. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3614,9** mld. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **6,5 %** va **93,5 %** ni tashkil etdi.



2021- yil yanvar-oktabr

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH ISHLARI



**2021- yilning yanvar-oktabr oylarida
shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari**



	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3867,9	109,9	100,0
Nukus sh.	1288,2	106,8	33,3
tumanlar:			
Amudaryo	169,8	113,7	4,4
Beruniy	191,1	102,8	4,9
Bo'zotov	57,8	103,6	1,5
Qorao'zak	109,5	168,7	2,8
Kegeyli	67,3	106,6	1,7
Qo'ng'irot	397,2	111,4	10,3
Qonliko'l	64,4	100,9	1,7
Mo'ynoq	228,5	90,1	6,0
Nukus	144,4	100,2	3,7
Taxiatosh	238,7	147,1	6,2
Taxtako'pir	83,2	111,9	2,2
To'rtko'l	337,8	108,1	8,7
Xo'jayli	136,4	109,4	3,5
Chimboy	100,5	137,5	2,6
Shumanay	85,9	100,4	2,2
Ellikqal'a	167,2	116,1	4,3

2021- yil yanvar-oktabr

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI**



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

65,3%

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurilishiga tegishli. Jami qurilish ishlarining 65,3 % i yoki **2527,8** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

74,0 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **310,9** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 74,0 % ni tashkil etdi.

58,1 %

Kichik korxona va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **1618,2** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 58,1 % ni tashkil etdi



90,5 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **598,7** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 90,5 % ni tashkil etdi.

Maʼlumot uchun: **Yangi qurilish** – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat koʼrsatish maqsadlari uchun obyektlari (bino va inshootlar) kompleksini qurish .



Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.


Bino va inshootlar qurilishi



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **6,3 %** ni tashkil etib, 2020-yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **2,3 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,8 %** punktga kamayib, **67,2 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar-oktabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,5 %** punktga ko'payib, **26,5 %** ni tashkil etdi.






Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi, % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **21,1** % ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **6,1** % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **78,9** % (**6,1** % punktga ko'paydi) ni tashkil etdi.



2020- yil yanvar-oktabr 2021- yil yanvar-oktabr


2021- yil yanvar-oktabr

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH ISHLARI

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **1,7 %** punktga ko'paydi va **16,2 %** ni tashkil etdi. Qolgan **83,8 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **1,7 %** punktga kamaydi.



2021- yil yanvar-oktabr


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI




**Korxonalar turlari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari
2021- yil yanvar-oktabr**

mlrd. so'm

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxona va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3867,9	419,9	2786,3	661,7
Nukus sh.	1288,2	59,4	1184,9	43,9
tumanlar:				
Amudaryo	169,8	0,3	95,3	74,2
Beruniy	191,1	0,1	120,6	70,4
Bo'zotov	57,8	0,2	51,4	6,2
Qorao'zak	109,5	40,2	55,4	13,9
Kegeyli	67,3	7,3	40,8	19,2
Qo'ng'irot	397,2	203,0	159,7	34,5
Qonliko'l	64,4	0,3	34,9	29,2
Mo'ynoq	228,5	4,3	205,6	18,6
Nukus	144,4	0,4	86,9	57,1
Taxiatosh	238,7	95,2	109,5	34,0
Taxtako'pir	83,2	0,3	74,9	8,0
To'rtko'l	337,8	0,3	251,1	86,4
Xo'jayli	136,4	0,3	89,3	46,8
Chimboy	100,5	0,2	56,7	43,6
Shumanay	85,9	0,1	68,1	17,7
Ellikqal'a	167,2	8,0	101,2	58,0



Ma'lumot uchun: Qurilish ishlari hajmi bo'yicha respublikadagi eng yo'qori ulushga ega Nukus shahri – 33,3 %, Qo'ng'irot tumani -10,3 %, To'rko'l tumani – 8,7 % va Taxiatosh tumani – 6,2 % ga to'g'ri keldi.



Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (61) 224-92-14

(61) 222-75-91

2021- yil yanvar-oktabr

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI**